



Linguistic analysis of English and Uzbek syntactic units in newspaper texts

Maftuna SHAVKIEVA¹, Ozoda TURSUNOVA², Gulizebo UZAKOVA³,
Kholida SHAMSIEVA⁴

Samarkand State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2024

Received in revised form

10 April 2024

Accepted 25 April 2024

Available online

25 July 2024

Keywords:

newspaper,
advertising,
newspaper texts,
terms,
newspaper style,
title,
terms and terms,
lexical units,
word combinations.

ABSTRACT

This article deals with the main features of the newspaper style, the concept of the newspaper headline, its types, tasks, and translation issues of lexical units and word combinations in newspaper texts. Different examples of lexical units and word combinations in newspaper texts, which provide information about the problems and issues that arise in the process of translation, were analyzed. Mass media texts are studied with the help of various analyses and their translations are presented.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss3-pp380-386>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Gazeta matnlaridagi ingliz va o'zbek tili sintaktik birliklarining lingvistik tahlili

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

gazeta,
reklama,
gazeta matnlari,
atamalar,
gazeta uslubi,
sarlovha,
atama va terminlar,
leksik birliklar,
so'z birikmalari.

Mazkur maqolada ommaviy axborot vositalari matnlari uslubining asosiy o'ziga xos xususiyatlari, gazeta sarlavhasi tushunchasi, uning turlari, vazifalari va gazeta matnlaridagi leksik birliklar, so'z birikmalarining tarjima masalalari ko'rib chiqilgan. Gazeta matnlaridagi leksik birliklar hamda so'z birikmalaridan turli misollar ham tahlil qilingan va ularning tarjimalari ham keltirilgan.

¹ Lecturer, Samarkand State Institute of Foreign Languages.

² Lecturer, Samarkand State Institute of Foreign Languages.

³ Lecturer, Samarkand State Institute of Foreign Languages.

⁴ Lecturer, Samarkand State Institute of Foreign Languages.

Лингвистический анализ английских и узбекских синтаксических единиц в газетных текстах

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

газета,
реклама,
газетные тексты,
термины,
газетный стиль,
название,
лексические единицы,
словосочетания.

В данной статье рассматриваются основные особенности газетного стиля, понятие газетного заголовка, его виды и задачи, а также вопросы перевода лексических единиц и словосочетаний в газетных текстах. Проанализированы различные примеры лексических единиц и словосочетаний в газетных текстах, которые дают информацию о проблемах и вопросах, возникающих в процессе перевода. С помощью различных анализов изучаются тексты СМИ и представлены их переводы.

KIRISH

Turli tillardagi ommaviy axborot vositalari yozilish uslubi, uning turlari, xabarlar mazmuniga ko'ra farqlanadi. Gazeta matnlarida ishlatilgan leksik birliklar, sintaktik birliklar, qoliplarining ham o'ziga xos xususiyati mavjud. Ingliz hamda o'zbek tilidagi sintaktik birliklarni tahlil qilishda esa tarjimadan foydalanimiz.

Xorijiy jurnal va gazeta matnlarining tarjimasi ham alohida ahamiyatga egadir. Ommaviy axborot nashrlarini tarjima qilishda amal qilinishi lozim bo'lgan qonun-qoidalar mavjud. Jumladan, jurnal va gazeta sarlovhalarining ham ayrim grammatik xususiyatlarini inobatga olish kerak bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Xorijiy nashrlardan kundalik ommabop gazetalariga quyidagilarni kiritish mumkin: "The Times", "The Daily Telegraph", "Financial Times", "The Guardian", va ommabop ro'znomalar "The Sun", "Daily Mail", "Daily Express", "Daily Mirror" va boshqalar.

Bir qancha tadqiqotchi hamda olimlar gazeta matnlarini tarjima qilishda tarjima amaliyotining mazmunini samarali tashkil etish va jarayonining turli jihatlarini tahlil qildilar (I.A. Galperin, I. Mardh, D. Reah, T.A. Znamenskaya, V.N. Komissarov, R. Fowler).

Shuningdek, izlanishlar jarayonida nazariy tahlil, lingvistik tahlil, umumlashtirish hamda qiyoslash usullaridan keng foydalanilgan. Muayyan til hamda nutq birliklarini tadqiq qilishda nazariy tahlil qilinayotgan nutq til qonuniyatlari bilan solishtirilib o'rganib chiqilgan.

NATIJALAR

Ommaviy axborot vositalarini muayyan xorijiy tilga tarjima qilish jarayonida amal qilish lozim bo'lgan ba'zi qonun-qoidalar mavjuddir. Jurnal hamda gazeta matnlaridagi leksik birliklar va so'z birikmalarining tarjima masalalarida quyidagi omillar asosiylari hisoblanadi:

- Tarjima qilish jarayonida gazeta matnlarining yozilish uslubi va dizaynini saqlab qolish;
- Uslubning xususiyatlarini tarjima matnida to'g'ri, aniq hamda ishonchlilik omillarini aks ettirish;
- Gazeta, jurnal matnlaridagi leksik birliklar muqobili va tarjimasini o'rganish, tarjima sifatini yaxshilash.

MUHOKAMA

Tarjima jarayonida chop etilishi kerak bo'lgan turli ma'naviy-ma'rifiy, iqtisodiy-siyosiy yangiliklar tarjimasini bir-biridan farqlash kerak. Tarjimashunoslikda turli xalqlarning madaniyatiga aloqador yangilik hamda ma'lumotlarni ishonchli ekanligi juda muhim. Shuningdek, bir davlatning siyosiy yangiliklari boshqa davlat siyosiy yangiliklaridan ajratilib, alohida kontekstlarda nashr qilinishi kerak hamda ularning tarjimasi ham biroz farqli bo'ladi.

Gazeta va jurnal matnlaridagi leksik birliklarning tarjima masalalarida quyidagi omillar asosiylari hisoblanadi:

- 1) Uslub va dizayn.
- 2) Atama hamda terminlar.
- 3) Madaniyatlararo muloqot vositalari.

Ommaviy axborot vositalarining o'ziga xos uslubi, dizayni, strukturasi hamda ayrim me'yoriy qoidalari mavjuddir. Jurnal va gazetalar qaysi davlat va tilda nashr etilayotgani ahamiyatli hamda bular turli bo'limlarda yaratiladi.

Har bir mamalakatning o'ziga xos atamalari va faqat asosiy matnlarda qo'llaniladigan turli jargonlar bo'ladi. Biz ularni matndan tashqarida qo'llasak, ular hech qanday hissiyot uyg'otmasligi mumkin [1].

Ba'zida tarjima qilinayotgan til madaniyatida ayrim tushunchalar bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun pastda izoh yoki havola qo'yiladi. Shunda tarjimon uchun juda katta qiyinchilik va muammolar paydo bo'ladi. Chunki ular ushbu mavzu bo'yicha bilimdon va ma'lumotlarga ega bo'lishadi. Maqolani haddan tashqari ko'paytirish yoki mavzudan voz kechmasdan kerakli tushuntirish berishi kerak bo'ladi.

Ingliz va rus tilidagi sintaktik aloqalar, sintaktik birliklar o'zbek tilida quyidagicha tarjima qilinib, aks ettirilishi mumkin.

1) *The MP is a Mr.Hollen.*

– Членом парламента является некий мистер Холлен.

– Parlament a'zosi qandaydir janob Hollen.

2) *The horror of Ukrain.*

– Ukrainadagi urush daxshatlari.

– Ужаси войны в Украине.

Ingliz gazeta matnlaridagi yangiliklar esa quyidagicha tarjima qilinib, aks ettirilishi mumkin [2].

Flight ban on laptops after new bomb fears.

– Terraktlar xavfi tufayli aviakompaniyalarga noutbuklarni olib o'tish ta'qiqlandi. (Hujumlar xavfi sababli aviakompaniyalarga noutbuk tashishga ta'qiq qo'yildi.)

– Запрет авиалиний на перевозку ноутбуков из-за новых опасений, связанных с терактами.

Brexit weekly briefing: article 50 moves closer but eu dashes divorce deals hopes.

– Brekzitning haftalik brifingi: 50-moddaning (Yevropa Ittifoqi shartnomasi) joriy etilishi yaqinlashmoqda, ammo Yevropa Ittifoqi ajralib chiqish umidini yo'qqa chiqaradi [6].

Shuningdek, fe'lning gerundiy shakli, ya'ni odatda fe'lning otga xoslangan shakli hisoblanib, gapda bosh va ikkinchi darajali bo'laklar bo'lib keladi. Gerundiy doimo fe'l o'zagiga *“-ing”* qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilinadi. Uni o'zbek tilidagi harakat nomiga qiyoslash mumkin bo'ladi hamda *“-(i)sh”*, *“-moq”*, *“(u)v”* kabi qo'shimchalar bilan birga tarjima qilinadi.

1) *Flying makes me nervous.*

– *Parvoz qilish meni asabiylashtiradi.*

2) *Learning foreign languages is my favorite hobby.*

– *Chet tillarini o'rganish mening sevimli mashg'ulotimdir.*

3) *It is a waste of time playing computer games all day long.*

– *Kuni bo'yi kompyuter o'yinlarini o'ynash bu vaqtni behuda sarflashdir.*

Tarjima jarayonida madaniyatlararo muloqotni to'g'ri aks ettirish vazifasi ham ahamiyatlidir. Siyosiy sharhlar tarjimonlar uchun juda katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Siyosatchilar yangi so'z va terminni tez-tez yaratishadi.

Misol uchun: *road map* – yo'l xaritasi, *puppet government* – qo'g'irchoq hokimiyat, *New Deal* – yangi bitim, *dirt road* – notekis yo'l, *trickle-down economics* – chuqur iqtisodiyot, *détente* – jasorat, *affirmative action* – ijobiy harakat [7].

Bu kabi so'zlar siyosiy nutqda ko'p uchrab turadi. Ular tarjimon uchun tarjima qilinyotgan til madaniyatiga mos holda topib qo'yish uchun to'siqdir. Tarjima madaniyatida bir davlatning siyosiy yangiliklari, ikkinchi davlat siyosiy yangiliklaridan ajratilib, alohida ta'riflar bilan nashr qilinishi lozim:

1) *The Republics' Supreme Council.* – Respublikachilar (partiya) Oliy Kengashi.

2) *Tomorrow's meeting and yesterday's march.* – Ertangi uchrashuv va kechagi yurish.

3) *Britain's Labour movement.* – Britaniyadagi ishchilar harakati.

4) *France's policy.* – Fransiya siyosati.

Jurnal va gazetalarning sarlavhalari ham maxsus tuzilishga ega. Iqtisodiyot yoki biznes haqidagi xabarlar ham, sport haqidagi xabarlarning tilida ham ular o'rtasidagi farqni sezishimiz mumkin. Rasmiy yoki norasmiy, texnik yoki texnik bo'lmagan, hissiy yoki neytral tarzda yozganimizda ham tilda farq bo'ladi [8].

Sarlavhalar xorijiy ommaviy axborot vositalarining eng muhim elementlaridan biri bo'lganligi sababli ularni yanada rang-barang, qiziqarli va jozibali bo'lishiga alohida e'tibor beriladi. Buning uchun gazeta va jurnallarda turli stilistik vositalar qo'llaniladi. Olimlarning ta'kidlashicha, ingliz gazetalarning sarlavhalardagi rang-baranglik va ta'sirchanlik turli xil fonetik vositalar orqali ifoda etiladi. Xususan,

1. Alliteratsiya (bir tovushning takrorlanishi):

Welsh Win World; US Cuts Find Few Friends.

2. Qofiya:

Outback in the Outback; Dirty Dealing in Cleaning

3. Ritm:

Thatcher Can't Catch; Spycatcher – Wright.

Bu misollarning barchasi ohangi va talaffuzi bilan e'tiborni tortadi. Fonetik qurilmalardan foydalanish orqali gazeta sarlavhalari yanada e'tiborni o'ziga tortadi. Eng muhimi, ular o'quvchi mushtariyning his-tuyg'ulari va diqqatiga ta'sirga o'tkaza oladi [3].

Shuningdek, ikki xil fikrni qarama-qarshi qo'yish yoki bir xil so'z yoki iboralarni sarlavhada takrorlash o'quvchini e'tibor qaratishga majbur qiladi va ular o'quvchini hayratlantiradi.

Setting foot on the moon may be a small step for a man but a giant step for mankind.

– *Oyga qadam qo'yish inson uchun kichik, ammo insoniyat uchun ulkan qadam bo'lishi mumkin.*

What counts isn't how you look but how you behave.

– *Muhimi sizning tashqi ko'rinishingiz emas, balki o'zingizni qanday tutishingizdir.*

Ommaviy axborot nashrlarining matnlari va sarlavhalarida biz o'quvchi mushtariylar e'tiborini jalb qilish uchun turli xil stilistik vositalarni ham ko'rishimiz mumkin. Ingliz jurnal va gazeta sarlavhalarining maxsus grammatik xususiyatlari mavjud:

1. Voqealar o'tgan zamonda sodir bo'lgan bo'lsa ham, ular sarlovhalarda hozirgi zamon shaklida ifoda etiladi:

Columbus Discovers New Route to India.

– *Kolumb Hindistonga yangi yo'lni kash qilgan (edi).*

2. Kelajakdagi voqealar-hodisalar uchun "to" predlogi ishlatiladi:

Sun to Burn Out In 6 Billion Years.

– *Quyosh 6 milliard yil ichida yonib ketadi.*

3. Sarlovhalarda aniq artikl **a, an** tushurilib qoldiriladi:

Cow Jumps over Moon; Dog Watches, Laughs.

4. Sarlovhada "va" bog'lovchisi o'rniga vergul qo'yiladi:

Jack, Jill Fall from Hill; Confusions Possible.

5. Hech qachon raqamlar ajratilmaydi :

Guides Dante Past 9 Levels of Hell.

6. Kimdir aytgan yoki dedi so'zlari o'rniga ikki nuqta qo'yiladi:

Galileo: "I Confess Earth Stays Still".

7. Bitta so'roq belgisi ishlatiladi:

Ceaser To Brutus: "Et Tu?" Falls by "Unkindest Cut".

Bu sarlavhalar grammatikasining odatiy o'ziga xos xususiyatlari va maxsus qoidalari hisoblanadi. Jurnalistlar ulardan sarlavhalarni yanada jozibador qilish hamda odamlarni maqolani o'qishga jalb qilish, shuningdek, gazetalarda cheklangan joy uchun foydalanadilar.

Ushbu maxsus grammatik xususiyatlarni bilmasdan, maqola to'liq o'qilmaguncha sarlavhani tushunish va uning ma'nosini izohlash qiyin bo'lishi mumkin. Mana shu qoidalarni tarjima qilish jarayonida ham e'tiborga olish zarur [4].

Shuningdek, ingliz gazetalari sarlavhalariga xos bo'lgan quyidagi lingvistik xususiyatlarni aniqlaydi. Xususan, artikllarning tushib qoldirilishi, fe'l va ko'makchi fe'llarning tushib qolishi, nominalizatsiya, murakkab ot so'z birikmalarining predmet pozitsiyasida tez-tez ishlatilishi, qisqa so'zlardan foydalanish, so'z o'yinlari va alliteratsiyaning keng qo'llanilishi kabi jihatlar muhimdir.

Ingliz jurnal va gazeta matn sarlovhalarida so'zlarning tushib qoldirilishi.

Sarlavhadagi so'zlarning tushirib qoldirilishi sarlovha hajmi ixcham bo'lishi uchun qo'llaniladi. Ular o'quvchilarning e'tiborini tezda o'ziga tortadi va vaqtini tejaydi. Ularning uzoq va murakkab sarlavhalarni o'qishga vaqti yoki sabri bo'lmasligi mumkin.

Boshqa tomondan, ma'noni ifodalash uchun zarur bo'lgan mazmunli so'zlar otlar, asosiy fe'llar, sifatlar tushirib qoldirilmaydi.

So'zlarning tushirib qoldirilishining asosiy manbai grammatik vazifani bajaradigan so'zlardir. Beshta asosiy tushirib qoldirilish yo'llari mavjud:

- artikllar (*the, a, an*);
- nisbiy olmoshlar (*who, which, that; kim, qaysi, o'sha*);
- aniqllovchilar (*some, this; ba'zilar, bu*);
- fe'llar va ko'makchi fe'llar (*is, are, were, have*);
- unvon va darajalar (*Xonim, Lord, Ser*).

Bunday so'zlarning tushirib qoldirilishi juda muhim emas, chunki ular asosiy ma'noni tashimaydi. Masalan:

1. *Ukraine plane with seven on board crashes in (the) Sahara.*
Bortida yetti kishi bo'lgan Ukraina samolyoti Saharada halokatga uchradi.
2. *Giant thermometer in China could be (the) largest in (the) world.*
Xitoydagi ulkan termometr dunyodagi eng katta termometr bo'lishi mumkin.
3. *(An) Accident at Ukraine nuclear plant forces reactor shutdown.*
Ukraina atom stansiyasidagi avariya reaktorining ishdan chiqishi [5].

Hozirgi zamon sifatdoshi har doim “-ing” bilan tugaydi va hozirgi zamonda sodir bo'layotgan voqealar bilan bog'lanadi. U gapda ot oldidan kelib, aniqllovchi vazifasida kelishi mumkin hamda aniq nisbat ma'nosida “-yotgan”, “-digan”, “-(u)vchi” kabi qo'shimchalarini bildiradi:

- a crying child* – yig'layotgan bola
a relaxing film – tinchlantiruvchi film

Gazeta matnlaridagi fe'lning o'tgan zamon sifatdosh shakli allaqachon sodir bo'lgan voqealarga ishora qiladi. “Past participle” gapda ot oldidan aniqllovchi vazifasida ishlatilib, majhul nisbat ma'nosida “-ingan”, “-ilgan”, “-gan” kabi qo'shimchalari ma'nolarini anglatib keladi [9].

- a broken pencil* – singan qalam
polluted air – ifloslangan havo

Shu bilan birga, “past participle” gap boshida ravishdosh sifatida ishlatiladi:
Damaged by ice, the ship couldn't continue its way.

- *Muzdan zarar ko'rgan kema yo'lida davom eta olmadi.*
I thought art history was for thickos.
Men san'at tarixi ahmoqlar uchun deb o'ylardim.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ommaviy axborot vositalari matnlari, xabarlar xususiyatlarini hamda ulardagi ma'lumotlarni tarjima qilib, o'zga tilda aks ettirishda muayyan belgilangan qonun-qoidalarini hisobga olish kerak bo'ladi. Gazeta va jurnal matnlarini tarjima qilishda yuqorida keltirilgan muhim jihatlar hamda omilarni hisobga olib, ularni boshqa tilga o'girish kerak.

Jurnal va gazeta matnlarining tarjimasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday nashrlarni boshqa tilga tarjima qilishning qonun-qoidalar mavjud. Gazeta sarlovhalarining ham ayrim grammatik xususiyatlarini inobatga olish kerak.

Shuningdek, yangilik va axborot almashish uchun xizmat qiluvchi nashrlar, ommaviy axborot vositalari tarjimasi yuqori sifatda amalga oshirilishi shart va buning uchun tarjimondan alohida bilim hamda ko'nikmalar talab qilinadi. Chunki axborot, ma'lumot va yangilar bu madaniyatlararo muloqotni ta'minlash va davlatlar o'rtasida hamkorlikni amalga oshirishga katta yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Erkaboyeva, N. (2015) O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. – Toshkent, 2015.
2. Ana Colta. Peculiarities of translation of newspaper articles. London. 2011.
3. Qudratov T., Nafasov T. Lingvistik tahlil. – Toshkent, 1981.
4. Mardh. I. Headlines: On the Grammar of English Front Page Headlines. – Oxford: Pearson Education Limited. 1980.

5. Shavqiyeva M.S. Hozirgi o'zbek tili sintaktik aloqalarining lingvistik tahlili // Innovative development in educational activities – 2023. – T.2. – № 12 – C.128-132.
6. Shavqiyeva M.S. Sintaktik aloqalar hamda ularning lingvistik tahlili // Innovative development in educational activities – 2023. – T.2. – № 12 – C.124-127.
7. Shodiyev S.E. Bio-social need to the study of lexical meaning // Journal of Positive School Psychology – 2022. – T 6, №. 9 – C. 4771-4777.
8. Absamadova M.I. The Impact of Diplomatic Language on International Relations: A Comprehensive A Analysis // International Journal of Formal Education – 2024. – T.3. – № 5 – C.299-302.
9. Ibayev A.J. Comparative analysis of the derivation of simple sentences in English and Uzbek// International Journal for Research in Applied Science & Engineering Technology (IJRASET) ISSN: 2321-9653; Volume 10 Issue IV Apr 2022. –P. 2146-2150. (SJ Impact Factor: 7.538).
10. Jamshed, Mirzoyev. "Communicative aspect of teaching English as a specialty." The role of science and innovation in the modern world 2.4 (2023): 123-129.
11. Shavqiyeva M.S. Tarjimada gazeta matnlaridagi birliklar va so'z birikmalarining ifodalanishi // Perspectives of philology and practical possibilities of teaching foreign languages; Proceedings of the international conference – 2023. ISBN: 978-9943-16-426-0 – C.485-487.